

Buyuk Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligiga

Ikki parda, o'n ikki holatdan iborat drama

Qatnashuvchilar:

Alisher Navoiy - ulug' shoir va mutafakkir

Husayn Boyqaro - Xuroson shohi

Sulton Badiuzzamon - shahzoda

Mavlono Sohibdoro - Navoiyning do'sti

Majididdin Muhammad - vazir

Amir Valibek,

Amir Ali Bobo,

Abdulxay tabib,

Xo'ja Shahobiddin - saroyga doxil kishilar

Nozanin - Navoiyning muhabbati ramzi

Shijouddin Zunnun - Badiuzzamon lashkari sarkardasi

Haydarbek - buzg'unchi

Keksa Muarrix, elchilar, mulozimlar, muazzin va somelar, sipohilar, sahrodagi kishilar va osiyalar.

Voqea 1498-1500 yillar orasida Hirot shahri va uning atroflarida kechadi.

Muqaddima

Sahna oldidan Keksa Muarrix o'tib ketayotib, birovga murojaat qilishdan ko'ra ko'proq o'zi-o'zicha o'ylanib so'zlanadi:

Nelarni ko'rmadi dunyoda bu bosh,

U - tarix bag'ridan yuzib o'tgan Yer.

Birov bo'lsa agar yerdagi Quyosh,

Men uning ismini derdim - Alisher.

Bir dard Alisherga bergan Xudoyim,

Istadi hayotda o'zgarsa holat:

Haqiqat bo'lsayu har ishda doim,

Birdek hukm sursa doim adolat.

Kurashdi. Kurashar ko'rsatib bardosh,

Nazdimda hamonki, tirik Alisher.

Nelarni ko'rmadi dunyoda bu bosh,

U - tarix bag'ridan yuzib o'tgan Yer.

Birinchi Parda

Birinchi holat

Amir Alisher Navoiy ancha charchab qolgan. Xasta. Ammo mamlakatdagi notinch ahvol unga osoyish bermaydi...

Sulton Badiuzzamonning Hirot etagidagi Puli Molonda o'rnatilgan chodiri. Shahzoda omonat taxti yonida faromushlanib turibdi.

Mulozim kiradi.

Mulozim. Sultonim! Hazrat Nizomiddin Alisher Navoiy sizga shaxsan elchilar yo'llabdilar.

Badiuzzamon. Kirsun!

(Chodirga ikki elchi kiradi.)

Birinchi Elchi. Buyuk Sulton! Sizga Padari buzrukvoringiz, Sulton Abulg'ozi Husayn Boyqaroning Yaqin Kishisi Hazrat Alisher

Navoiydan maktub keltirdik.

Ikkinchi Elchi. Javobni qistov kutmoqdalar.

Badiuzzamon. (maktubni olib, o'ylanib). Men o'zim javobni yetkazurmen.

(Elchilar tazim qilib chiqib ketishadi. U maktubni ochib o'qishga tutinadi. Shu soniya uning ko'zi oldida Alisher qiyofasi jonlanib, ovozi eshitaladi.)

Alisher. Fazlu kamol sohibi, xurshidi davron, ulug' Sulton Badiuzzamon Mirzo! Duoisalomdan so'ngra, malumingiz bo'lg'aykim,

Hirot yaqin qirq kundirki, qamal holatida turg'oni, ikki tomon bir qavm, bir el-ulus, og'a-ini, qarindosh-urug' odamiylik shartin

unutib bir-biriga qilich sermash maylig'a kirg'onidan bu faqiri xokisor, g'aribi parishonro'zg'or bag'oyat xavotirdamen. Anduh-

namodat chekmoqdamen...

(Badiuzzamon maktubni o'qishdan to'xtab, o'zicha asabiy so'zlaydi.)

Badiuzzamon. Men nima, bekorga jangga o'tlanibmanmi? Orada muxolifatni boshlag'on menmu? Padari buzrukvor validam Beka

Sulton Begimdan ko'ngillari qolg'onini menga ham bildirib, o'zlari doim badmehrlilik ko'rsatmadilarmu? Ana, Balxda bo'lg'onimda

bir yoqdan iltifotli yo'sinda qoshimg'a Siz Navoiy hazratlarini jo'natib, ikkinchi yoqdan Balx shahri qutvoli Islom barlosga

shahzoda ovga chiqsa, qaytib shaharga kiritma, deb xufyona farmon yuborgan padari buzrukvor Sulton Husayn Mirzo emasmu?

Mendan norozilanib, mening xos kishilarimdan bir to'pini ayovsiz chopib tashlatting'on, bir guruhini asir olib, ularni ham hukmga

binoan qatl ettirg'on Sulton Boyqaroning o'zlari ekanini unutmog' mumkinmu)?

(U maktubni o'qishda davom etadi.)

Alisher. Meni mazur tutgaysiz. Tirik podshoh-otaga qarshi siz, aziz shahzoda, butun Xuroson mulkini qo'lga olmoq xayoli bila

harakatda ekaningiz rasman ham, sharan ham munosib ko'rinmaydir. Sizga, to'ng'uch o'g'ulga taqlidan ukalaringiz Abulmuhsin

Mirzoyu birodari Muhammad Muhsin Mirzo birlashib, urush-isyon yo'lin tutayotg'onlari tashvishli va o'kinchli. Yangidan fitna-

fasod qo'zg'olib, begunoh kimsalar qoni to'kulishidan asranmog' lozim...

Badiuzzamon (yana o'zicha bo'g'ilib g'udranadi). Hazrat Amir Alisher! Muhtaram ustoz! O'zingiz voqifsiz. Mening suyakli o'g'lim

Muhammad Mo'min Mirzoni xatna qilg'onda, Sulton Husayn Boyqaro uni valihad degan, Astrobodni unga bag'ishlab berg'on edi.

Bu vadani vaqti kelib buzg'oni ustiga, Ulug' Beka Xadicha Begimning qutg'usi ila padari buzrukvor, o'z nabirasi, mening jon-

jigarim Mo'min Mirzoni hokimlikdan bo'shatib zindonga soldi. Mast holda farmonga qo'l qo'yib, u nozik niholni o'ldurdi. Men bunga qandoq chidayman?

(Sulton Badiuzzamon o'krab yig'lab yuboradi. Keyin, ko'zyoshlarini artib, yana maktubga bog'lanadi.)

Alisher. Hosili kalom, shon-shukuhli shahzoda, padari buzrukvoringiz, janob shahanshoh Astroboddan Hirotga kelayotg'on bu damda Siz otaga qarshi yomon farzand bo'lub ko'runishdan, jang qilmoqdan asranib, malum muddatga bo'lsun, biron yoqqa jo'nab ketg'oningiz va shahar atrofini lashkardan bo'shatg'oningiz maqsadga muvofiqdir. Haq subhanahu va taolo Sizning zafarli umringiz, xayrli ishlaringizga barakot bersin...

(Badiuzzamon taxtiga borib o'tirib, chuqur xayolga botadi. Ko'zi o'ngidan Alisher qiyofasi yiroqlashadi. Nihoyat, u muayyan qarorga kelgandek bo'ladi.)

Badiuzzamon. Badnom bo'lmoqdin qo'rqqasmen. Jang qilmoqqa shaymen. Ammo Sulton Husayn Boyqaro emas, Hazrat Alisher Navoiyning o'zlari va so'zlari haqqi-hurmati hozircha isyonidan tiyilurmen. Xudoning irodasi shu bo'lsa, ajab emas. (U mulozimni imlaydi.) Amirlar, beklarni chorlang. (Amirlar, beklar kirishadi.) Lashkar otlansun! Muvaqqat Puli Molondan Puli Solorga, Murg'ob daryosi bo'yiga ko'churmiz...

Ikkinchi holat

Oradan bir necha kun o'tgan.

Hirot. Katta ko'cha. Bir yon bozor, ikkinchi yon mo'jaz masjid ayvoni.

Bomdod payti. Bozorda bitta-yarim odam qorasi ko'rinadi. Masjid ayvoni esa bo'm-bo'sh.

Masjid eshigidan chiqqan muazzin u yon-bu yon parishon qaraydi. Ayvon oldidagi mezanaga ko'tarilib, azon aytadi. Keyin, pastga tushib, yana har yoqqa alanglaydi.

Nihoyat, uch-to'rt kishi ko'chada paydo bo'lib, ayvonga keladi.

BIRINChI SOMYe (muazzinga). Assalomu alayko'm va rahmatullohu va barakotuhu.

Muazzin. Assalomu alayko'm.

IKKINChI SOMYe (muazzinga). Imom hazratlari shu yerdami?

Muazzin. Halidan beri kutib o'tiribman. Ko'rinmayaptilar. Sizlardan bo'lak somelar ham yo'q.

Uchinchi Some. Uydan chiqishga qo'rqqan bo'lsalar kerak. Kishi yurak hovuchlab ko'chaga chiqasan! Ko'chadan tirik qaytasan yoki yo'q. Jonning o'zi omonat bo'lib qoldi.

Birinchi Some. Otalarimiz davrida Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon bir bola boshida tilla to'la tabaq Mashriqdan Mag'ribga borib qaytsin, hech kim unga daxl qilolmaydi, degan ekanlar. Mamlakatda shunday osoyishtalik, xotirjamlik o'rnatg'on ekanlar.

Ikkinchi Some. Insof yuzidin, aytish kerak. Sulton Sohibqiron Husayn Boyqaro janoblari ham yurt obodonligi, raiyatning baxt-saodatiga doim ko'shish bildirib keladilar. Ana, shahzodalar bilan oradagi nizolarga ham imkon qadar barham berib, tartib o'rnatgan edilar. Endi yengil nafas ola boshlagan edik.

Uchinchi Some. Bu bedodlik, ur-yiqit, himoyasiz egasizlik o'zi kimdan, qayoqdan chiqdi? Oldin biron bunday savdoga hech duch kelmagan edi... Mamlakatning avra-astari ag'darilib yotibdi.

(Shu payt ularning gapi bo'linib, ayvonga besh-olti kishi bir katta va bir kichik tobut ko'tarib keladilar. Tobutlarni ayvon to'riga qo'yadilar. Muazzin va somelar badtar parishonlanishadi.)

Birinchi Some. Vaqt o'tayapti. Namozni nima qildik?

Ikkinchi Some. Namoz mayli, janozani kim o'qiydi? Shuncha kutdik, imom kelmadilar.

Uchinchi Some. So'fi hazratlari, o'zingiz imomatga o'ting. Janozani ham o'qiysiz. Bu kuncha boshqa iloj ko'rinmaydi.

(Ular va ularga qo'shilib, tobut ko'tarib kelganlar masjidga kirib ketishadi. Ayvonda yolg'iz ikki tobut qoladi.)

Uchinchi holat

Shu notinch kunlardan biri.

Abdulla Ansoriy majmui yaqinida yangi barpo qilingan bog' o'rtasidagi chortoqda Amir Alisher bilan Mavlono Sohibdoro boshlarini solintirib o'tirishibdi. Bog' devori ortidan qo'shiq eshitiladi: вЪЪKecha kelgumdir debon...вЪЪ

Qo'shiq tugagach ham ular ancha jim turadilar.

Axiyri...

Alisher. Mavlono Sohibdoro, nechun sukutdasiz?

Sohibdoro. Ulug'im, Siz, Navoiydek zot, kaminani do'st va musohib tutg'ondan beri Sizga har kun nedur xush xabar kelturdim. Hozir undiq qilolmasmen.

Alisher. Hamisha bo'lg'onidek, so'zlang. Bu kun shaharda o'tg'on hodisotlardan nelarni ko'rdingiz va nelarni eshitdingiz?

Sohibdoro. Ko'nglim xijil, ulug'im. Ammo, ruxsat tegdi, borini aytaman... Bu kun hammayoqda to's-to'polon. Xavf-xavotirli ahvol. Sohibqiron Amir Temurning nuri diydalari Shohrux Mirzo mamlakatni mustahkam tutub nasibalari uzulg'onida ko'ring'on вЪЪbuzug'liq davri вЪЪ qaytib kelg'ondek. Mamlakat go'yo egasiz. Ayniqsa, Hirot. Bexos vabo-o'lat, zilzila yo sel ro'y berg'on, saltanat aravasi jarga tushib ketayotg'ondek...

Alisher. O, men buni bilib turibmen. Bu men uchun qo'rqinchli bir tush. Umrim bo'yi temuriylar xonadoni halokatga yuz tutmasun, shu saltanat yemirilmasun, deb harakat qildim. Mana, dunyo ishlaridan yuz burib, ziyoratgohda uzlatda o'lturg'onimga qaramay, hamon aravani to'xtatishga urinmoqdamen.

Sohibdoro. Xullas, shaharda maxfiy ish tutg'on yangi bir jamoa paydo bo'lg'on. Aksari o'n uch-o'n olti yosh orasidagi johil, yovuz, itoatsiz yoshlar. Ular to'planib, bir dasta, necha to'da tuzg'onlar. Kunduzlari uy-uylarida yoshurunib, kechalari shaharni payxon qiladilar. Odam o'ldiradilar. Ular uchun na katta-kichik, na shoh, na dorug'a, na qozi, na mirshab bor. Hamma yerda o'z hukmini o'tkazishga moyil... O'tgan tunda devor oshib bir ota-bolani uyida pichoqlab ketg'onlar. Tongla namozga borayotg'on bir masjid imomini o'lasi kaltaklab, majruh holga solg'onlar...

Alisher. Ming taassufki, men bundan xabardormen. Lekin, anglamasmen. Nega bu tang ahvol yuz berdi? Shahar emdi bedarvozamu? Jinoyatga borg'onlar qaysi toifa kishilar farzandi? Ularning rahnamosi kim?

Sohibdoro. Men bilg'onim, ulardan bir qismi shoh va shahzodalar olib borg'on jang-jadalda halok bo'lg'on amirlar, beklar, askarlarning bolalari, otasiz o'sg'on yarim yetimlar. Yana bir qismi qashshoq, nochor qolg'on oilalar farzandi... Mamlakatda tinimsiz urush borayotg'oni-yu, shahanshoh hazratlari Sulton Badiuzzamonning o'g'li Mo'min Mirzoni xud-behud qatl ettirg'onlari

zaminida, fikri o'jizimcha, bu o't-alaf ung'onga o'xshaydi. Buzg'unchilar boshlig'i Haydarbek degan yigit emish.

Alisher. Haydarbek? Men uni bilmashmen.

Sohibdoro. O'zgalalar ham bilmas. Faqat, odamlar ichida ismi malum, xolos.

Alisher. Mo'min Mirzo men uchun aziz farzanddek edi. Xudo shohid, uning hasratida necha kun motam tutdum... Aniqki, Sul-ton Boyqaro janoblari o'zi ham shahzodalar orasida ahillik, biri-birini anglash, diyonat yo'qligidan ozurda. Bir barmog'ini tishlasa, ikkinchisi og'riydi. Boz aniqki, bu kun mamlakatni go'shtdek parcha-parcha chopib-kesib, yulqib ketishdan asrab turg'on - Sul-ton Boyqaro! Men uni hamisha qo'llaganmen va qo'llagaymen... Yetim-esirlar, g'arib-bechoralarga o'zini inson, o'zini musulmon deb bilg'on kishi befarq qaramas. Biroq, Mavlono Sohibdoro, siz aytg'on jamoa ichida ular ozchilik; ko'pchilik ularni ham majbur qilib o'zi tomon tortg'on qora kuchdur. Tartibsizlik keltirg'on, osoyishtalikni buzg'on, bezorilik, o'g'rilik, qotillik qilg'on kimsalar kattami-kichikmi hech vajdin oqlanmas. Unda, odamiylikning ming yillik ustunlari qulamaydimu? Bahornav, bu ahvolga qarshi biron chora topmoq kerak. Bosqin, qirg'inni to'xtatmoq kerak...

Sohibdoro. Ore, ulug'im. Shundoq. Mushkul joyi, shaharda barcha bu vahshiy olomondan qo'rquvga tushg'on, o'zini uning oldida o'jiz sezg'ondek. Barchaning tili, qo'li bog'lang'on kabidir. Odamlar, bilmadim, doim johillik, yovuzlik, zo'ravonlik avjiga ming'onda dovdurab qolib, ko'zyosh va faryoddan bo'lak narsani bilmag'on shikasta vujudga aylanan ekanmu?

(Darvozaxonadan ularning yoniga mulozim keladi.)

Mulozim (Alisherga.) Amir hazratlari! Ancha bo'ldi, eshikda to'rt-besh kishi turibdi. Bandlar, charchag'onlar, desam ham ketishmayapti. Sizga arzga kelg'on. Ularning dodini eshitishingizni so'rashayapti. Bildirmay ilojim qolmadi.

Alisher. To'g'ri qilibsiz. Ayting, kirishsun...

To'rtinchi holat

Oradan yana bir necha kun o'tgan.

Tunda oy yorug'ida butun qadim Hirot shahri va Sul-ton Husayn Boyqaroning ko'shki g'ira-shira ko'zga tashlanadi.

Bo'm-bo'sh ko'chalarda, o'zini shamolda tutolmayotgandek namoyishda chayqalib, boshida tungi yengil kuloh, egnida surp ko'y-lak Sul-ton Badiuzzamon Mirzo allaqanday gangib kezib yuribdi.

Badiuzzamon (o'zicha). Xudoyim! Men o'z borgohimda, Murg'ob daryosi shovullashini eshitib uxlab yotgan emasmidim? Bu nima, o'ngmi yoki tush ko'rayapmanmi? Tush bo'lsa kerak... Men tug'ilib o'sg'on Hirot shumi? Bu yerlar Turkiston. Shu bilan birga, Afg'on! "Fig'on so'zidanmikan? Yo'qolib borayotgan Xuroson qismati... Tavba! Hammayoqda qabriston sukuti. Dahshatli sukut! Tirik jon bormi? Na qorovul, na mirshab ko'rinadi...

(Ayni soniya birdan ko'chaga qo'lida xanjar, tig', bolta besh-olti o'smir yopiriladi. Ular Badiuzzamonni ko'rmaganga oladilar yoki ko'rmaydilar.)

O'smirlar. Haydarbek! Boshladikmi?

Haydarbek. Boshlanglar!

(Ular do'konlarning eshik-darchalarini sindirib, nimalardir tashiydilar. Hovlilarga devor oshib tusha boshlaydilar. Har yoqdan qiy-chuv, dod-faryod eshitaladi.)

BIRINCHI O'SMIR (devor ustidan). Bitta kampir yotibdi.

Haydarbek. O'ldiraver.

IKKINCHI O'SMIR (boshqa devor ustidan). Beshikda bola.

Haydarbek. O'ldiraver.

Badiuzzamon (ular atrofida aylanib yurib). Hoy, to'xtanglar! Sizlar kim, odam bolasimi yoki Iblismi? Dunyoda o'g'rilar, bezorilar, kallakesarlar har yerda goho uchrashini bilardim. Lekin ular el-ulus boshi ustiga chiqib olg'ondek hukm surishini ko'rmaganmen.

Bu insoniyatning qiyomatga yuz tutg'oni, tanazzuli, inqirozimikan?

(Ular Badiuzzamonga ahamiyat bermaydilar, uni payqamaydilar. O'z jinoyatlarini davom ettiradilar.)

HAYDARBYEK (o'zicha). Kimki, meni yomon ishlar qilayapti, yomon yo'lga kirgan, deya o'ylasa, adashadi. Men bor tartibga qarshi isyon ko'tardim. Saltanatni to'ntarib tashlamoqchiman. Eski dunyoni buzib, yangi dunyo tuzmoqchiman. Ro'yi-zaminda o'jiz kishilar emas, faqat teng, ozod, kuchli kishilar yashashga haqli.

(Shu asno ko'shk tomondan ko'chaga har qachongidek otda emas, bir necha mulozim ko'targan taxtiravonda Sul-ton Husayn Boyqaro kirib keladi. U ham aftidan Sul-ton Badiuzzamonni ko'rmaydi. Biroq Badiuzzamon unga razm solib qaraydi.)

Badiuzzamon. Padari buzrukvor! Qaribsiz... Padari buzrukvor, bu men, Badiuzzamon, tanimayapsizmi? Yurtni

boshqarolmayapsiz! Nega hayot ravishini mana, bu ochko'z - buzg'unchi olomonga berib qo'ydingiz? Ularning tanobini

tortmadingiz! Tortmayapsiz! Nima uchun? Bu holda Hirot ahli istagan odamga darvozani ochadi. Qat'iy hujum qilsam, menga ham shaharni jangsiz topshiradi. Men Hazrat Navoiydan hayiqib, uyalib o'zimni to'xtatib turibmen, xolos.

(Sul-ton Husayn Boyqaro aksincha, vahshiy guruhga, ular esa Husayn Boyqaroga yuzlanadi.)

O'smirlar. Qaranglar, podshohimiz o'tib ketayaptilar.

Haydarbek. (kulib). O'tsa, o'taversin.

Boyqaro. Haydarbek! Men seni ko'rib turibmen.

Haydarbek. Ko'rsangiz, nima? Men ham ko'rayapman... Siz olijanob bo'lishga intilgan, ko'ngilchan odamsiz. Sizdek shohlar bor ekan, taxtlar qulab, tojlar toptalaveradi. Biling! Men sizdan qo'rqmaymen. Farzandlaringiz qo'rqmaydiyu...

BOYQARO (o'zicha, o'kinib). Dunyoda shafqat bag'rida shafqatsizlik, mehr bag'rida mehsizlik, kamtar, sodda ish tutish bag'rida beparvo hurmatsizlik tug'ilishi nahotki, hayotda qonuniyat bo'lsa? Men mamlakatni yillar davomida tinch-osoyishta saqladim. Uni obod, boy, marifatli holga keltirdim. Hirot "Yerdagi jannat deb nom oldi. Bobomiz Sohirqiron Amir Temurga munosib ish

tutishga harakat qildim. Lekin birinchi bo'lib ulg'aya boshlagan farzandlarim itoatdan bosh tortdi, intizomni buzdi... (Jamoaga.) Demak, senlar ham itoatdan bosh burmoqdasanlar? Bir kuni o'zlaring o'z boshlaringga yetishlaringni anglamayapsanlar! Har

qanday itoatsizlik, isyon zulmning onasidur...

(U taxtiravonda uzoqlashadi. Buzg'unchilar talangan, o'g'irlangan narsalarni xalta-qoplarga joylasha boshlashadi. Soyadek sudrangan Sul-ton Badiuzzamonning qarshisida kutilmaganda Amir Alisher Navoiy jonlanadi. Yaqin-olisdan uzun bir ayollar nolasi eshitaladi.)

Badiuzzamon. Aziz ustoz! Muhtaram Amir! Bilasiz, podshoh-otam haramiga kirgan o'n bir xotindan ko'p o'g'ul, ko'p o'g'ul-nabira ko'rdi. Bulardan har biri podshoh bo'lishni istadi. Men ham... Buning uchun shahzodalarni ayblash qiyin. Bizning qismat yo'limiz

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

shu! Mana, endi boshim qotg'on. Saltanatni egallashdan ham ko'ra uni asrash mushkul ekan! Qarang, o'ziga bino qo'yg'on, nafs-manfaat yo'lida odamlarni yanchib-toptashdan, hatto qotillikdan qaytmaydig'on bu bosqinchi, johil, yovuz olomonga qarshi nima qilmoq kerak?

(Boshqalar singari Amir Alisher ham atrofida kapalakdek aylanayotgan Sulton Badiuzzamonga etibor bermaydi, uni ko'rmaydi. Bu orada sal pasaygan ayollar nolasi endi avj pardaga ko'tariladi.)

ALISHYeR (mahzun ko'yda).

Ko'rub dardim, tarahhum qilmading hech.
To'kub ashkim, tabassum qilmading hech.
Firoqing o'ti ichra necha yig'lab
Fig'on chekdim. Tarahhum qilmading hech.
Jahonga oh-u, ashkim soldi oshub,
Bu to'fondin tavahhum qilmading hech.
So'zung shavqidan erdim - xasta umri,
So'rarg'a bir takallum qilmading hech.
Musallam ishq, ey ko'nglum, sangokim,
Ko'rub zulmin, tazallum qilmading hech.
Muhabbat ahli qismin ney-chun, ey charx,
Qilib mehnat - tanaum qilmading hech...

(Bezorilar endi ko'chadan apil-tapil daf bo'ladilar. Ko'chada birgina Amir Alisher va hamon uning atrofida aylanayotgan Sulton Badiuzzamon qoladi.)

BADIUZZAMON (o'zicha).

El jafosining maloli...

O'ksudi el mayli mendin...

Ulug' ustod! Dunyo shu, har kim o'zini boshqalardan aqlliroq, kuchliroq deb bilib, biri-birini yengish, biri-birini mahv etishdan iboratmi? Nahotki, inson shuning uchun dunyoga kelg'on bo'lsa? Padari buzrukvorim meni tiz cho'ktirmoq istaydi! Men uni mag'lub etgim keladi! Mana, bu vahshiy to'da esa bizning barchamizni yo'q qilib, o'zi hukmron bo'lishga urunadi... Bu telbalikning nihoyasi bormu? Xudoyim, to'zim ber!

(Amir Alisher Sulton Badiuzzamonga qaramaydi, uni payqamaydi.)

ALISHYeR: Xudoyim! Sen odamni to'kis yaratding. Uni ko'rkam deding. Unga ko'rkam tuyg'ular baxsh etding. Ammo inson o'z umrida jaholatdan, g'aflatdan qutulolmadi... Odamda odamlik asranishi kerak! Dunyo bir kuni halokatga yuz tutmasin, desa u baribir, o'zini tasqaralikdan xalos etmoqqa majbur...

(Alisher chiqib ketadi. Sulton Badiuzzamon ko'cha o'rtasida cho'kib, boshini changallaydi.)

Badiuzzamon (o'zicha). Ustoz yurt tinch, el osoyishta, farovon, baxtli yashashini istaydilar. Ammo ko'pchilik atrofda "go'rlar qo'porilsin, o'zining qozoni qaynashini o'ylagan bir sharoitda bunga qandoq erishasan? Bu qismatmi yoki bizning aybimizmi? Biz adashib-uloqqan bandalarini kechirgin, Xudoyim!

Beshinchi holat

Sulton Husayn Boyqaro saroyi xonalaridan birida Amir Muborizuddin Valibek, Amir Ali Bobo, Mavlono Sahibdoro, Xo'ja Shahobiddin, Abdulxay tabiblar to'plangan.

Xo'ja Shahobiddin. Valinematimiz va pushti-panohimiz Sulton Husayn hazratlari uch kundan buyon devonda ko'rinmaydilar. Niyatlari ne, biz bilmaymiz. Aniq, ne ish bilan mashg'ul bo'lishni ham bilmaymiz.

Amir Valibek. Bizning har qachon vazifamiz arzu dod eshitish, g'ofil turmay molu mulk ishini nazorat qilish, yana janob Sulton aytg'onlaridek, muntazam tavorix-kitob ko'rub mushohada yuritish emasmu? Ahvol qandoq bo'lmasun, kishi o'z vazifasini bajarishga masul.

Amir Ali Bobo. Bu ayni haqiqat. Ammo hamma narsa shart-sharoitga bog'liq. Hozir biz nima qila olamiz? Men qattiq tashvishdamen. Adashmasam, Sulton o'zlari ham qancha say ko'rsatmasunlar mamlakat yoqa-engi bir bo'lmog'onidan shu kunlar chuqur iztirobda. Bir yon Hirotdagi parokandalik, bir yon suyuqlik shahzoda Sulton Badiuzzamon Mirzo...

Amir Valibek. Sulton Husaynning umrlarida bu birinchi tang ahvol emas. Sulton salomat va bardamlar. Inshoolloh, barcha ish xayrli bo'lg'ay. Vaziri azam Majiddiddin Muhammad Sultonning huzurlariga borg'onlar, kelsunlar, yangi bir mashvarat bo'lsa, eshitgaymiz.

Sohibdoro. Amir Alisher Navoiy Sulton Badiuzzamonga ko'p mehr ko'rguzg'on. Tarbiya berg'on. Ammo Badiuzzamon Mirzo Amir Alisherning irodalariga bo'yinsunub Hirotda qopqasini tark etg'oni bilan, shahanshohga qarshi adovatli jangdan batamom qo'l tortg'oni yo'q. Bu kun u sarkarda Shijouddin Zunnun bilan birlikda Balx mamlakati va unga tobe bo'lg'on yerlar, Murg'obdan to Amudaryo bo'ylarigacha zafar qozonib egallab borayotg'oni butun mamlakat uchun xavotirlidir.

Amir Ali Bobo. Hozir tashqi nizolardan ham ko'ra ko'proq Hirotda ichidagi nomalum talotum yomon. Bu barchamizning hayot-mamotimizga tegishli. Rasuli Akramdan keyingi Xalifalik davrida Hazrati Umar, Hazrati Usmondek sahobai kiromlarni ko'chada chavoqlab ketgan diyonatsiz qavm bu kun bizdek ojiz bandalarga qo'l ko'tarmasligiga kim kafolat bera oladi? Men gapirmasdim, ammo pichoq suyakka borib yetdi.

Xo'ja Shahobiddin. Biz albatta, Sulton Boyqaroga bir ne demoqqa ojizmiz. Sulton hazratlari bizning chuldirashimizni tinglashga muhtoj ham emas. Hukm podshohning hukmidir! Lekin necha kundur masjid-madrasalar, yo'llar, ko'priklar qurilishi, obodonlik to'xtag'on. Hirotda ko'kdan tushg'on moviy shahar vayronaga o'xshab turibdi. Uylarda motam-marosim bor, to'y yo'q. Bozorda savdo o'lg'on, dehqonlar shaharga bundoq eshakda o'tin ham olib kelmayapti.

Amir Ali Bobo. Eng yomoni, Amir Valibek, Sohibqiron Amir Temur Samarqandda tuzg'on poytaxtni bir payt Shohrux Mirzo Hirotda ko'chirg'onida Samarqand Buxorodan, Xivadan, Farg'onadan, Qarshidan, butun Turkistondan saroyga yaqin turmoq istab, bu yerga kelib qolg'on oqil va ko'rkam insonlarning farzandlari endi uy-joyi, mol-mulkini tashlab Hirotdan har yoqqa guras-guras ko'chib ketayapti. Biz Movarounnahr bilan Xuroson - ikkisi ham yurtimiz, deb yurg'on edik. Bu yerda maqom topg'on turkiy el-ulus uchun Xuroson bu kun vatan bo'lmay qoldi.

Amir Valibek. Biz bilg'on gaplarni Sulton Boyqaro hazratlari yuz chandon ortiq angelaydilar, o'ylaydilar. Podshoh hukmi vojib, biz kutguvchilarmiz! Majididdin Muhammad kelsunlar, balki bir mujda bo'lg'ay... Birodar Abdulxay tabib! Hazrat Amir Alisherning salomatliklari qandoq?

Abdulxay. Bir oz toblari qochg'on edi. Bu kun ancha durustlar, tongla xabar olg'on edim...

Xo'ja Shahobiddin. Amir Alisherga qadrton va musohib bo'lsam-da, hazratning bot-bot xuruj qilg'on dardlari ne, men yaxshi bilmamen.

Abdulxay. Amir Navoiyning dardlari har bir voqeaga kuyunub, ehtiros bila, bor imkon doirasidan ham ko'p o'zini sarflash, bundan holsizlanish kasali, zaf kasalidir. Bu kasalning davosi har qandoq ishdan, hatto iztirobli o'ydan to'xtab, orom olmoqdur. Goh yolvorib, goh dag'dag'aga o'tub ham, buni hazratdan talab qilolmaysan.

Amir Ali Bobo. Shu kunlar hazrat ayniqsa qayg'uga botg'on bo'lsalar kerak...

(Vazir Majididdin Muhammad kirib keladi.)

Majididdin. Hamon majlis qurib o'tiribsizlarmi?

Hamma. Balle.

Majididdin. Olampanoh bilan undan-bundan ancha so'zlashib qoldik.

Amir Valibek. Lutfu karam sohibi onhazrat ne dedilar?

Majididdin. Hech narsa.

Amir Ali Bobo. Ahvol borasida bir og'iz ham indamadilarmi?

Majididdin. Bunda ne hikmat, bilmamen, Sulton janoblari menga osoyishta va bedard ko'rundilar. Xazina quriy boshlag'oniyu boj-xiroj masalasida gaplashdilar. Askarlar toliqqaniyu ular da jang qilish salohiyati pasayganiga o'kundilar. Faqat, gap orasida bir marta, tunda nega har yerga qo'yilg'on posbonlar, ko'chalardagi qorovullaru mirshablar pisib-berkinib yurg'on ekan, aniqlanglar, dedilar. Xufyalar shunday xabar yetkazg'on bo'lishi mumkin!

Xo'ja Shahobiddin. Faqat shu xolosmi?

Majididdin. Yo'q. Keyin, ulug' maxdumimiz Sulton janoblari (qo'ynidan qog'oz chiqarib) bobolari Amir Temur Sohibqironning mana, bu qog'ozda yozilg'on so'zlarini o'qib berdilar. ВѢНЬHech kim eshitdimu, mening qo'l ostimda bo'lg'on yerlardagi bir shaharda do'konning o'g'irlang'onini? Yoki, qaysi bir kishining uyiga o'g'ri bosib kirg'onini?.. Chunonchi, bir dorug'a shahar amniyatini o'z ustiga qabul qilib oldimu, u quruq nomga vazifaxo'r emas, balki masuliyatli bir o'rinda turg'onini bilmog'i, kechakunduz o'z vazifasining ijrosida ogoh bo'lmog'i lozimdur. Agar bir o'g'rilik hodisasi zohir bo'lsa, hammadan avval dorug'aning o'zi masul tutiladur. O'g'ri topilmasa, dorug'aning qo'li kesilib, o'g'rining o'rniga o'zi jazolanadur...вѢк (Qog'ozni qaytib buklab qo'yniga solib.) Bu gaplardan kamina nedur anglag'ondek bo'ldum. Ammo xulosa yasayolmadim.

Amir Ali Bobo. Xulosa malum. Sulton Husayn janoblari shaharda tartib o'rnatishni balki, biz, ahli davlatdan, balki, fuqaroning o'zidan kutayaptilar. Qandaydir istihola yuzidinmi, o'zlari biron chora ko'rishga shoshmayaptilar.

Xo'ja Shahobiddin. Nimadan istihola? Nega? Axir, nega? Ahvol kundan-kun badtar ekanini aytmadingizmi?

Oltinchi holat

Amir Alisher Navoiy o'z uyi to'rida, xontaxta oldida xayol surib va quyulib kelgan misralarni qog'ozda tizib o'tiribdi. Har dam to'xtab, ostonaga o'ychan tikiladi, bironni kutayotgandek bo'ladi.

ALISHYeR.

Ne tirikmen, ne o'lik, ne sog', ne bemormen,

Ayta olmonkim, firoqingdin ne yanglig' zormen.

Nuktai og'zing g'amidin tortibon jadvaldek oh,

Ashk selin oqizib, sargashta chun pargormen.

Do'stlar, ko'nglum hadis in demangiz, Tengri uchun,

Kim, men ul devonai sargashtadin bezormen.

Ko'nglakingdinkim, topar jon dam-badam Yusuf isi,

Ey azizim, men ham ul ko'nglak aro bir tormen.

Bir quyosh hajrinda tunde ro'zg'orim tiyradur,

Tong emas, gar tun kibi, motam tutub yig'lormen.

Mayli afyun ezg'il, ey mug'kim, bu eski dayr aro

Telbararmen g'ussadin, gar bir nafas hushyormen.

Nevchun el dashnomu tanidin bo'lay oshuftahol,

Ey Navoiy, chun nekim derlar, yuz oncha bormen.

(U yana ostonaga tikiladi va unga go'yoki ostonada bir Nozanin turgandek tuyuladi.)

Nozanin. Ne tirikmen, ne o'lik, ne sog', ne bemormen...

Bu holatning poyoni bormu?

Xasta ekansiz. Ko'rgoni keldim...

ALISHYeR.

Kel-kel, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni,

Chehra ochkim, ko'rmak istar diydai giryon seni...

(Nozanin ostonaga kechib, burqani ochadi.)

Eshikdin soya kirgach, sog'inur-menkim, quyoshimdur...

NOZANIN (poygakda cho'kib). Men soya emasmen. Jonli vujudmen! Siz meni doim soya deb bildingiz.

Alisher. Shubhasiz, vujud. Jonli vujud!

Husni ortar yuzda zulfin anbar-afshon aylagach,

Sham ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach...

Nozanin. Darvoqe, sham. Siz meni boshda Guli deb tanidingiz. Keyin, bora-bora g'azallaringizda nomalum bir go'zalga, Nozaninga aylandim. Bu men uchun sharaf. Baxt! Lekin mana, endi umr shamimiz kundan-kun so'nib borayapti. Shunday pallada, yana xasta holda o'tirib, nega yozayapsiz? Yozmang! O'zingizni asrang!

Alisher. Iloj yo'q. Bu mening hayotim mazmuni... Dunyoda shu qadar olis yo'l, olis masofa kechdimki! Ayriqliq, sargardonlik, nochorlik, g'ariblik... Ammo mahzun NAVOdan umidbaxsh NAVOga yetib kelish meni NAVOIYga aylantirdi! Umrimda oyoq ostida loydek xorlanib-toptalishlarni ham, loydan yasalg'on ko'zadek qo'llarda ko'tarib alqashlarni ham ko'rдум. Meni nigun holatda yerga kirib ketishdan, farahli-ko'rkam holatda o'zingni osmon deb o'ylashdan So'z, Nazm, Adabiyot asradi! Umrim so'ngigacha men shu Qora Mehnatga va Senga fidomen, pariruxsor!

Nozanin. Menga deysizmu? Rostdanmu?

Alisher. Rost! Sen!

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag'masoz...

Nozanin. Baribir, tuzalguncha yozmang. Qarang, shaharda nima g'avg'o? Olamda nima sho'rish? Nahotki, Sizning mehnatga berilib iztirob chekkaningiz shu, telba olomonga kerak bo'lsa? Nahotki, azaldan nokomil hayot alal-oqibat izga tushadi, xatolardan, gunoh qilishdan umrida hayiqmagan odamlar o'zgaradi, inson tuzaladi, deb o'ylasangiz? Yerdagi haqiqat hukm surishi, Adolat qaror topishi uchun birov o'lgunicha kuyib-yonishi - nahotki! - shart deb bilsangiz? Bunga ishonsangiz?

Alisher. Ishonamen! Shart!

Nozanin. Xayolparast! Bulbul!

Alisher. Mening xastaligim o'tkinchi. Mehnatim bir ovunchoq. Dardim boshqa... Biz, insonlar yolg'on-yozuqqa, nafs yo'lida aldanishga, kibru-havoga berilg'onmiz. Poklanish va boshqalarda ham bunga ko'shish uyg'otish avvaldan, olisda qolg'on bolalikdan umrimda murodim bo'ldi. Bunga goh erishdim, goh aro yo'lda qoldim! Mening hayotim dunyoda bo'lg'on-bor xatolar, gunohlardan ozorlanib, Tangri taologa qilg'on ibodat-iltijo! Butun say-harakatim ham ibodat-iltijodur.

Nozanin. Umringiz oxirlab, boshingizdan ko'p savdolar o'tub, telba dunyo royishi qandoq, odamning fel-atvori qandoq, bilmadingizmu? Siz o'ylagan - inson kamolotga yetishi, pokizalik, bu - sahodagi bir sarob...

Alisher. Vallohi, bu necha ming yillardan kelgan aks-sadodur. G'arib Olamda har qachon Go'zal Olamlar, ajib belgi-xislatlar topilg'on. Xushxulq, xushtab ko'p insonlar o'tg'onlar. Hech qachon yolg'on haqiqatdan, vahshat odamiylikdan, xunuklik ko'rkamlilikdan, yomonlik yaxshilikdan g'olib kelmag'on. G'olib kelmagay, inshoolloh! Biz o'z qavmimiz marifatli, olijanob, mag'rur va yakdil bo'lishini orzu qilg'on kishilarmiz. Biz foni dunyoni bezag'on fano ahli, ishq ahli elchilarimiz. Iztirob egalarimiz.

Nozanin. Ishq va iztirob bir ekanmu?

Alisher. Bir!

Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur. Kimda bor?

Furqatingdin bu alamkim, menda bordur. Kimda bor?

Nozanin. Sevsangiz, nega mendan uzoqlashdingiz? Yana, go'yoki menga faqat vЎnЎ bir bulbuli nolon kerak vЎk emish... Firoq-ayriliq boisi men emas. O'zingiz.

Alisher. Balki, o'zim?

Har dam onsiz yuz o'lum erdi Navoiy jonig'a, -

Bir o'lum birla bu dardig'a davo qildi firoq.

Nozanin. Yozg'onlaringiz aksar hasratli... Biz baxtli bo'larmidik?

(Olisdan, allayerdan yana ayollar faryodi eshitiladi.)

ALISHYeR (bir oz sukutdan so'ng). Men seni baxtsiz qilishdan qo'rqдум. Ayol ishq uchun yaratilg'on! Iztirob uchun yaratilmag'on...

Nozanin. Dunyoda doim iztirob chekib yashagan ayol-ku!

Alisher. Mening darveshona yo'lim bir kishilik! Seni sevdim. Yondim. O'rtandim. Ammo mening to'fonli ummonimda sening g'arq bo'lishingni istamadim. Inson bir necha vazifani bo'yniga ololmaydi, bir vazifani bajaradi! Menga birovga zulm qilmoqdin yolg'izlik va bekaslik afzal tuyuldi. Bu men ishqdan voz kechganimdan emas! Bir insondek yashadim.

Nozanin. Bu kun mamlakat notinch. Shaharni ham sovuq bir sharpa, qora bir isyon ishg'ol etgan. Goh tun, goh kunduz ayollar ohu faryodi ko'kka ko'tarilayotir! Siz charchagansiz. Xastasiz. Lekin nega bu bobda biron chora-tadbir topmayapsiz?

Alisher. Bu bobda men o'zi-o'zimdanda bir ish qilolmasmen, chora-tadbir ko'rmoq Sulton Husayn janoblarining vazifasidir. Oliy tab, insof va diyonat sohibi Sulton Abulg'oz Boyqaro qandoq yo'l tutishni bu faqirdan ko'proq bilurlar. Barchadan burun mamlakat taqdiri uchun javob bermak shohlarning nasibidir.

Nozanin. Sulton hazratlari sust qaramoqdalar. Ishni paysalga solmoqdalar. Har kuni qon to'kilayotir. Necha odamning xonumoni kuyayotir. Bundan shahanshoh zarracha qahru g'azabga kelmayotirlar.

Alisher. Ollohning g'azabi-yu, shohning g'azabi to'rqulikdur. Sulton qahr nishonasi qizil libos kiyib, boshiga qirmizi toj qo'ndurib xos xonandan saroyga chiqsa, olamga o't ketishi tayin. Bu kuncha shohimiz bardosh ko'rsatmoqdalar.

Nozanin. Bardoshning ham uyi kuysin! Elning allaqachon sabr kosasi to'lg'on... Sulton esa beparvo yurg'ondek!

Alisher. Beparvo emas! Voqifmen, janob Sulton asosan, har yerda urush harakatlari qo'zg'alayotgani bilan xayollari band.

Hirotdagi ahvolga kundalik ko'ngilsiz hodisalar deb qarag'on bo'lishlari mumkin. Bundan bo'lak, Boyqaro uchun maydonda dushman aniq, jangda yuzma-yuz olishish o'ng'ay. Aholi ichidagi tartibsizlikka qarshi qilich ko'tarolmaysan! Yana aytsam, johil holga kirg'onlar umuman o'smir, yosh. Ayniqsa, bulardan bir qismining vЎnЎ etim vЎk degan nomi bor. Musulmon podshohi o'z yurtida vЎnЎ etim-esirlar boshini silash vЎk aqidasiga amal qilish o'rniga bunga qarshi ish tutishi qiyin... Shu boisdan, Sulton bilan oramizda bazibir ziddiyatlar borligiga qaramay, men ham parishonmen!

Nozanin. Men tushunmadim. Bu holda netmoq kerak?

Alisher. Haqiqat va adolatga qarab, sabr-bardosh ko'rsatib ish tutmoq kerak.

Nozanin. O, buning uchun uzoq yillar, asrlarni kutishga to'g'ri keladi...

(U o'rnidan turib, chiqib ketadi.)

ALISHYeR.

Yor bordi-yu, ko'nglumda aning nozi qolibdur.

Andoqki, qulog'im to'la ovozi qolibdur.
Ko'z xonasini qildi - barandoxta bu ashk,
Ko'z bordi, vale xona barandozi qolibdur.
Ko'nglum qushi to sunbulingiz domig'a tushdi,
Bulbul kibi har gul sori og'ozu qolibdur.
Ul qush safar aylab, ne tarab, gulbunin ochgay,
Kim, bog' aro bir - sarvi sarafrozi qolibdur.
Men ishq rumuzin demay o'ldum. Safar etgum,
Farhod ila Majnunning o'kush rozi qolibdur.
Taqlid qilib ko'ngluma - ishq ahli chekar oh,
Ul bordi-yu, el ichra sarovozi qolibdur.
Hijron-u, visolni ko'pu oz dema, Navoiy,
Yuz shukur dekim, ko'pi borib, ozi qolibdur...

Parda.

Ikkinchi Parda

Yettinchi holat

Sulton Husayn Boyqaro saroyi. Ayonlar jam. Vazir Majididdin Muhammad, Amir Muborizuddin Valibek, Amir Ali Bobo, Mavlono Sohibdoro, Xo'ja Shahobiddin shu yerda. Amir Alisher Navoiy ham shu yerda.

Qizil libos kiyib, boshiga qirmizi toj qo'ndirgan Husayn Boyqaro kirib kelib, taxtga o'tiradi.

Boyqaro. Majididdin Muhammad! Hirot osoyishtaligi uchun ne chora-tadbir ko'ruldi?

Majididdin. Onhazrat! Tunda do'konlarning qorovullari va ko'cha posbonlari, o'ktam yigitlardan tanlab, ikki hissa ko'payturildi.

Kunduzlari ham odamlar o'z ishi, tirikchilik bilan mashg'ul bo'la olsin uchun sobiq sipohilardan bir qismi mirshablarga borib qo'shuldi. Tag'in...

BOYQARO (keskin). Ammo ahvol tuzalg'oni yo'q. Devonga shikoyat yozayotg'on ko'p. Arzu-dod bilan kelayotg'onlar ham...

Amir Valibek, siz ne deysiz?

Valibek. Ahvol darhaqiqat og'ir, Sulton janoblari. Barcha kamar bog'lag'onmiz, har doim bo'lg'onidan yuz chandon ortiq yugurib-elib xizmatdamiz. Natija ko'rinmayotir!

BOYQARO (boshqa ayonlarga). Sizlar ne deysizlar?

Amir Ali Bobo. Buzg'unchi-bezorilar shaharning qayerida? Qandoq berkinib yuribdi? Birov bilmaydi...

Xo'ja Shahobiddin. Shaharda, notinchlikka qaramay, jami bolalar, yoshlar kunduzlari maktab-madrasada. Tunda bular orasidan kimlar o'g'rilik, qotillikka borayotir, ajratib-aniqlashning iloji yo'q...

Sohibdoro. Sulton hazratlari, ko'plar saroyga arzu-dod qilsalar-da, ko'cha-ko'yda odamlar so'zlashishdan qochmoqdalar. Ular o'zlariga ziyon tegib, bir kor-hol ro'y berishidan qo'rqib-xavotirdalar...

Alisher. Yurt xavf ostida. Elning ahvoli yaxshi emas. Butun say-harakatga qaramay, bu kungacha jiddiy biron chora-tadbir ko'rilmag'oni aniq.

Boyqaro. Farmon tayyorlangiz! Qaysi ko'cha, qaysi mahallada bezori va beboshlar bo'lsa-yu, uni tutib keltirib berishmasa, shu joyni buzub tashlab, aholisi qirib tashlansun... Shafqat qilib o'tirilmasan! Men boricha mehr ham, bardosh ham ko'rsatdim.

Yetadi... Ruxsat sizlarga! Amir Alisher, siz to'xtaling...

(Ayonlar chiqib ketishadi.)

вѢнь Podshohlik borlig'i - boshdin-oyoq bosh og'rig'i! вѢкъ Maqul aytg'onsiz. Bilib! Onglab... Hirotida turg'on tanglik tez barham topishi lozim. Nuri-diydamiz Badiuzzamon Mirzo ko'p yerni tortib olib, egallab, yurt ikkiga parchalanib qolg'oni kam. Shahzoda bizga qarshi yangidan qo'l ko'tarmoq uchun lashkar yig'ayotg'oni menga ayon. Uning g'olib-jahongir bayrog'i hammayoqda shula sochayotir. Lashkarining surnay va karnay ovozi bot-bot qulog'imga chalinayotg'ondek...

Alisher. Shahanshohi olam, Sulton Badiuzzamon o'z jigarbandingiz! U feli torlik qilib Sizga qarshi tursa-da, Siz unga qarshi bormang...

Boyqaro. Shahzodaning katta qo'shunga boshchilik qilish salohiyati, harbu zarbda istedodi borasida eshitib, bir yoqdin faxrlandim. Suyundim. Bolam safga kiribdi, deb o'yladim. Ikkinchi yoqdin meni g'am-g'ussa chulg'adi. U mening shon-shavkatimga putur yetkazmoqda.

Alisher. Sulton Badiuzzamonning shon-shavkati ham sizning shon-shavkatingiz, xoqonim...

Boyqaro. (uni eshitmagandek). Men qismatimga shukrona keltiraman, Haq subhona-u va taolo menga shoyon baxt berdi, lekin men istag'on oqil va solih farzandlar bermadi. Bobomiz Hazrat Amir Temur Sohibqiron tuzg'on katta davlatdan faqat bir ulush qoldi, u ham sindirilg'on nondek, parchalang'on. Mendin so'ngra, g'ayrat-shijoati bor, ammo fikr-mulohazasi yo'q Temurzodalar uni ham вѢньeb bitirishlarivѢкъ muqarrar. Men buni ko'rib turibmen! Shu kunlar ko'nglumda jang qilib Badiuzzamon Mirzoning tazirini berish niyati turibdi, shundoq qilardim ham! - mamlakat zaiflashg'on, askar jangga tayyor emas. Bir oz muddat kerak...

Alisher. Mening kengashimga quloq tutsangiz, Majididdin Muhammadning maslahatiga kirib el-ulusdan o'lpon yig'ishni to'xtating. Xazina bo'shab qolg'on ekan, men haj uchun to'plagan naqdinamni tortiq qiladurmen. Elning noroziligi yangi bir isyonlar keltirishi mumkin. Jang qilish niyatidan ham qayting, onhazrat. Ota-bolaning jangi xosiyatsiz ish. Oldingi bundoq janglar el-ulusning qoni bekordan to'kilg'oni-yu, mamlakatda katta bilan kichik orasida hurmatsizlik uyg'onganidan bo'lak narsa keltirmag'oni o'zingizga malum. Meni mazur tuting, shahardagi ahvol ham shuning oqibati...

Boyqaro. Men aralashmasam-da, tashqarida shahzodalar boshliq, shaboxun tarzida amirlar, beklar ichida borayotg'on janglar ham, shahardagi bu tartibsizlik ham o'zi-o'zidan chiqmag'oni aniq, albatta. Muhimi turli tarafdin Xurosonga, butun turkiy el-ulusga g'ayrlik qilib nifoq solish harakatida yurg'on, kelib odamlar orasida joylashg'on, johil, nodon kimsalardin birovni maqtab, birovga hatto mablag' berib ularning terisi ostiga kirg'on dushman bu kun har yerda topilib turadur. Men bu ko'runmas qo'lni qirqolmadim.

Alisher. Buni bartaraf etish uchun mamlakatda osoyishtalik darkor. Bir xonadonda ahillik bo'lmasa, begonalar xonadon egalaridan har birini kamsitib, ozor yetkaza oladurlar.

Boyqaro. Xo'p, netmoq kerak?

Alisher. Haqiqatga rioya qilib, adolat yuzidin ish tutmoq kerak...

Sakkizinchi holat

Murg'ob daryosi bo'yidagi qasrda Sulton Badiuzzamon Mirzo kattakon deraza oldida o'tiribdi. Deraza ortida, maydonda sipohilar qilichbozlik mashqi o'tkazishayapti.

Badiuzzamon (o'zicha). Aslida, Hirotni oladurg'on bo'lsam, hozir olg'on durust. Xufyalar, u yerda it egasini tanimaydi, deyapti. Padari buzruvkor qaysarlik qilmay saltanatni menga topshirib qo'ya qolsalar-ku, yaxshi bo'lardi. Ammo o'zim bostirib borib olsam, shoh bilan qandoq munosabat tutaman? Otam bo'yinsunsa, hay-hay! Bo'yinsunmasa, Abdullatifga o'xshab padarkushga aylanamanmi? Albatta, shoh atrof-buluklarning xalqini qala ichkarisiga olib, shahar devor va burjlarini mustahkamlaydi. Jangga ham kiradi! Keyin-chi? Mening yigitlarim yaxshi. Lashkarim kuchli. G'olib kelishim ko'rinish turibdi! Faqat... o'rtada Amir Alisher! Arab va Ajamda u mashhur. O'zi ham dunyoni kaftdagidek ko'radi. U bilan hisoblashmay bo'lmaydi. Dunyoga ming yilda bir keladurg'on kishi u! Senga bir og'iz вѢхайвѢќ desa, tamom, yer yorilib yerga kirg'ondek. Qandoq iloj topsa ekan? (Amir Shijouddin Zunnun kiradi.)

Menga qara, Shijouddin Zunnun! Qo'shun jangga tayyor, deb o'ylaysanmu?

Zunnun. Tayyor. Buning ustiga, Hirotni ichkarisida endi bizga xayrixoh ko'p. Sulton Boyqaro ko'tarilg'on to'zonni bostirolmayapti.

Hammayoq alg'ov-dalg'ov. Ammo...

Badiuzzamon. Nima, ammo?

Zunnun. Hirotdan Mavlono Sohibdoro Sizni ziyorat qilg'oni kelg'on.

Badiuzzamon. Mulozimga ayt, olib kirsun.

(Zunnun mulozimga ko'rsatma berib, orqaga qaytadi.)

Nima maqsadda kelg'on ekan?

Zunnun. Indamadi. Siz bilan ko'rushib-ziyosat, dedi, xolos.

Badiuzzamon. Mavlono Sohibdoro buning uchungina kelmaydi.

(Mavlono Sohibdoro kiradi.)

Mavlono, marhamat, xush ko'rduk.

Sohibdoro. Ulug' Sulton hamisha salomat bo'lg'aylar.

(O'tib o'tiradi.)

Aziz Mirzo! Siz bilan gapim pishsa, rasmiy, yo'qsa, shaxsiy mehmoningizmen.

Badiuzzamon (kulib). Ikkisini birlashtirsa bo'lmasmu?

Sohibdoro. Buning uchun ikkimiz oldin maxfiy so'zlashib, kelishib olishimiz lozim.

Badiuzzamon. Men G'ur yayloviga Seyistondan, Amir Zunnun o'ziga tegishli Zamindovardan kelib, bir maqsad bilan lashkarni qo'shg'on kundan buyon mening Amirdan bekitiqcha gapim yo'q.

Sohibdoro. Men qarshingizda xijolat chekadurg'on gaplar chiqishi mumkin, shahzodam.

Badiuzzamon. Chiqaversun!

Sohibdoro. Sulton Boyqaro hazratlari bilan Siz, muhtaram shahzoda, ota va farzand bo'lg'onlaringga qaramay, orada sulh tuzmoq taklifi bilan keldim.

Badiuzzamon. Sulh? Shahanshoh o'zidan, sichqonning ini ming tanga bo'lg'onidami? Parishonlanib, paytavaga qurt tushg'onidami?

Sohibdoro. Bu - inning qandayligiga bog'liq. Bu etikka ham bog'liq! Podshoh janoblarining etiklari hali mustahkam... Ruxsat berdingiz, aytaman, meni mazur tutasiz! Hozir Sizning ahvolingiz mushkulroq. Qo'lingizda shohlik shahodatnomasi yo'qligidan, sizning lashkaringiz har yoqni talab yurg'on qaroqchi kapidur. Shariat hukmiga binoan, Siz ikki tomondan, podshohga va otaga sarkashlik qilib, isyon ko'targ'on osiy holdasiz.

Zunnun. Sulhda ne ko'zda tutulg'on?

Sohibdoro. Sulh har jihatdan xayrlidir.

Badiuzzamon. So'zlang.

Sohibdoro. Eng avval, Padari buzrukvoringiz har qandoq muxolifatni unutib, Sizning bor gunohingizni kechiradilar. Siz ham fitna-fasod, saroy o'yinlari qurboni bo'lg'on jigarbandingiz Mo'min Mirzo uchun Padari buzrukvorni kechiring. Ayniqsa, bu kun siz egallab turg'on Balx mamlakati va unga tobe yerlar, Murg'obdan Amudaryo bo'ylarigacha Sizda qoladi. Peshkash qilib, muhr bosib beriladi. Faqat, o'rtada podshoh va otaning haq-huquqi, hurmati rioyasi qoladi. Siz to'la vakolat bilan qo'lga olg'on viloyatda xoqon hazratlarining humoyun nomi bilan Sizning dongdor nomingiz xutbada birga qo'shub o'quladi...

Badiuzzamon (o'ylanib turgancha kulib). O'z mulkingni o'zingga qaytarib bermoq... Bu - o'z shariy xotiningga uylang'on kapidur.

Sohibdoro. Istasangiz, shu. Bu borada oldin Amir Alisher ham sizga maktub yozg'on. Istamay jang qilmoq bo'lsangiz, barchamizga bu ne malolatu, ne malomat, kelturishini Yolg'iz Oллоhning O'zi biladi.

Zunnun. Shartnoma tuzilg'onmi?

Sohibdoro. Tuzurmiz.

Badiuzzamon. To'g'risini ayting, Padari Buzruvkor nadomat chekib o'zlari shundoq nozik qo'numga keldilarmu?

Sohibdoro. Xudo haqqi, o'zlari... Va albatta, Amir Alisher bilan kengashib...

Badiuzzamon (kulib). Men aytdim-a... Balki, Husayn Boyqarosiz Alisher Navoiy bo'lmasdi. Lekin Alisher Navoiysiz Husayn Boyqaro ham bo'lmas edi...

To'qqizinchi holat

Taxminan biron oydan so'ng.

Sahro. Quyosh yonib yotibdi. Amir Alisher - qo'lida hassa, qumga botib sekin surinib borayapti. Bir to'p kishi undan sal orqada, lekin unga ergashgan. U boshda bularga etibor bermaydi, keyin, burilib qaraydi.

Alisher. Sizlar nega ergashayapsizlar?

Ergashganlar. Siz - Navoiy...

Alisher. Sizlar-chi?

Ergashganlar. Biz benavolarmiz!

Alisher. Butun olam NAVODan iborat-ku! Qushlar sayrog'i. Daraxtlar shovullashi. Shamolning nola chekkani ham... NAVOSIZ

odam bo'lar ekanmi?

Ergashganlar. O'zimizda bo'lmag'onidan, Sizga ergashayapmiz-da! O't chiqqanida birov yonib-kuyayapman, desa, boshqasi men uchun ham ayt, degan ekan. Bizning dardimizni ham aytadig'on - Siz! Navosiz elning navobaxshi!

Alisher. Men aytg'onimni aytdim! Endi boringlar, menga ergashmanglar. Men charchadim. Buning ustiga, "tang'a qariliqda notavonlik yetdi. Butun hayotimni ko'z oldimga keltirib, oxiratni o'ylashim kerak...

Ergashganlar. Faqat, bir og'iz so'z... ko'z oldingizga nima kelayapti?

Alisher. Bolalikda sahrani ko'rg'on edim. Yana sahra! Mening umrim shu ikki sahra orasi...

(Bir to'p kishi to'xtagandek bo'ladi va dam o'tmay, yangidan ergashadi. Alisher esa xayolga botadi.)

Ey pari, rahm etki, ko'nglum zor erur. Bechora ham.

Ishqu savdo dashtida Majnun erur. Ovora ham.

Tandagi paykonlar-u, ashkim yorutmas uynikim,

Dudi ohimdin qorarmish sobitu sayyora ham.

Zaxmi ko'p bag'rimni tikmak mumkin ermas, ey rafiq,

Kim, erur yuz pora-yu, majruh erur har pora ham.

Vasli iqboli-yu, men hayhotkim, ruxsorini

Toqatim yo'qdur yiroqdin qilg'ali nazzora ham.

O'yla, suv qildi balo ko'hsorini ohim o'ti,

Kim, olib ko'ksunga urguncha topilmas xora ham.

Charx makru fitnasidin g'ofil o'lmang, zinhor,

Chunki, bu shohid base fatton erur. Makkora ham.

Telbarab, ittim Navoiydek junun sahrasida,

Qilmadi yodimni hargiz bir pari ruxsora ham...

(U burilib qarab odamlar hamon ergashayotganini payqaydi.)

Ketmadinglarmi?

Ergashganlar. Yo'q.

Alisher. Sabab?

Ergashganlar. Hali Sizga aytmag'on gaplarimiz bor.

Alisher. Men hajga borayapman. Xalal bermanglar. Meni yo'ldan qoldirmanglar.

Ergashganlar. Biz yo'lda qolib ketsak, bizning xatolarimiz, gunohlarimizni ham so'rang!

Alisher. Albatta, so'rayman. Eng avval, o'zinning xatolarim, gunohlarim bor. Men ham bir bandaman, ulardan poklanishim kerak.

Keyin, barchaning dardi...

(U besh-o'n qadam yuradi. Qarasa, baribir orqadan odamlar kelayapti.)

To'xtanglar! Xo'sh?

Ergashganlar. Siz ketsangiz, bizning arzu dodimizni kim eshitadi? Kim o'z himoyatiga oladi?

Alisher. Qiziq ekansizlar! Qozi bor, bek bor, dorug'a bor, hokim bor, shoh bor... Hammadan burun, arzu dodingni Xudoga aytish kerak!

Ergashganlar. Aytamiz. Lekin Osmon uzoq Yer qattiq...

ALISHYeR (o'ylanib). Kelinglar, mayli. Eshitaman.

(Barcha qum ustiga o'tiradi.)

Hajga endi borolmasligim ham mumkin. Necha bora shahdlandim. Goh hozir mavridi emas, goh yo'l xatarli, deb Sulton Boyqaro izn bermadi. To'g'rirog'i, meni yonidan ketgazgisi kelmadi. Yana bir o'tlanib, qatyi qaror qilg'onimda yurt peshvolari, etiborli kishilar yo'limni to'sdi, bormang, deb yolvordim. Mana, shu kunlar bormoqchi edim, bu gal safar aniq edi, lekin yiqqanimni yurtga topshirdim. Yo'limdan chiqib menga umid bilan boqqan insonlardan boshlab qo'limdan don yegan qushlargacha - ularning ahvoli, taqdirini o'yladim...

Kimki, bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Kaba vayron bo'lsa, obod aylagay...

Men bu Kabani kimga tashlab ketaman? Buyog'i umrim tugagunicha shu sahrada, haj yo'lidamen... Marhamat, so'zlangiz!

Ergashganlar. Qandoq so'z boshlamoqni ham bilmasmiz. Bizning har kun, har soatimiz alam va motamdan iborat. So'z yo'q...

(ВЪНЪ Qaro ko'zimъ Ёк qo'shig'i, barcha boshini solintirgan, sukutga cho'mgan holatda, mahzun yangraydi. Nihoyat...)

ERGASHGANLAR (Birinchi kishi). Hirotda shu kunlar o'g'rilar, qotillar, har xil yovuzlardan to'ygan edik. Sulton Boyqaro janoblari ularni jazolash to'g'risida farmon berdilar, bizning baxtimiz, osoyishtaligimizni o'ylab, kerakli, dono ish qildilar.

Tashakkur! Ammo Hirotda ahvol oldingidan yuz chandon badtar bo'ldi...

ERGASHGANLARDAN (Ikkinchi kishi). Odamlar gunohkor-gunohsiz birovlarini tutub kelturub, ular keksa ekan, yosh ekan, deb ham qarab o'tirmay, ming azobu uqubatlarga solinayaptilar. Balki, maquldur! Ammo zindonbonlar, soqchilar, mirshablarga Xudo ВЪНЪberdiv Ёк. Mahbuslardan bazilarni taxtaga, toshga-devorga mixlatib tashlayaptilar. Bazilarni qo'ltig'idan osib, oyog'iga tosh bog'lab ikkiga bo'lib-parchalayaptilar. Yana bazilarni ko'zlarini o'yib, qo'l-oyoqdan tirnoqlarini sug'urib olayaptilar...

ERGASHGANLARDAN (Uchinchi kishi). Yovuzlik, zolimlik saltanat uchun qonun ekanmu yoki odamning qonida bor ekanmu, gunohkor, jazo berayapmiz, deb shundoq shafqatsizlik qilinayaptiki! Bunisi holva. Birgina aybdor chiqibdi, deb ayamay, butun ko'cha, butun mahallalarni buzub, aholisi qirib tashlanayapti. Sulton Boyqaroning farmoni shundoq ekan! Keksalarda nima gunoh? Go'daklarda nima gunoh? Siz doim haqiqat, adolat, deysiz. Haqiqat qani? Adolat qani?

ALISHYeR (o'rnidan turib ketib, xafa bo'lib, jahli chiqib). Bu - yangi bir bedodlik! Ayanchli hol! Lekin senlar ham bunday o'ylanglar. Na issiqqa, na sovuqqa chidaysanlar! Podshoh rahm qilib, suyib, ko'ngilchan-bo'sh qarasa, na hokimu dorug'a, na biri-biring bilan kelishmay qo'yasanlar! O'zlaringdan ketib, boshga chiqib olasanlar! Buzg'unchilik qilib, noxushlik keltirasanlar! Podshoh aksincha, qatiyat ko'rsatib, g'azablanib, arqonni tortsa, darhol musichai-begunoh bo'lib qolasanlar. Obidiyda qilib, nola-afg'on chekishga tushasanlar! Ko'chaga chiqqan bolaga qaramaysanlarmu? Kitob o'qutmaysizlar. Mehnatga o'rgatmaysizlar. Bu bolalar, yoshlar Mirxondni, Xondamirni bilmaydi. Shoh Muzaffarni, Behzodni bilmaydi. Tarbiya bermaysizlar! Birovni kechasi uyiga bostirib kirib pichoqlagan maxluqni men himoya qilishim kerak ekanmu? Har qandoq shafqatsizlik, qon to'kish, birovga jabr-sitam menga yoqmaydur! Biron vajdan oqlamasmen ham! Ammo senlarga ortiq yordam ham berolmaymen. Kerak bo'lsa,

podshohga boringlar!

(Shu payt ergashganlar orasida Alisherning bexosdan Abdulxay tabibga ko'zi tushib qoladi.)

Abdulxay tabib! Siz nega bu yerda turibsiz?

Abdulxay. Olijanob hazrat! Yotib oling. Siz yotishingiz kerak! Isitmangiz baland...

Alisher. Yo'q, siz ro'y bergan ahvolga qandoq qaraysiz?

Abdulxay. Ming qatla uzr, Amirim. Men hakam emas, hakimman. Albatta, voqeaning manosiga, odamning aft-angoriga qarab baho beriladi. Ammo men birovni hayotning guli, birovni qabih ekan, deydolmayman. Yaxshi-yomon barchani davolayman. Sizga yaqin tomonim, men ham inson yovuzlikdan, jaholatdan, dardlardan qutulishini istayman... Endi bir oz orom olmasangiz bo'lmaydi.

ALISHYeR (unga ortiq ahamiyat bermay, o'zicha). Hajga borayotg'on edim. Yo'l bunchalar cho'zilib ketdi.

(U yana qumda vazmin surina boshlaydi. Odamlar ham ergashadilar. Bir mahal to'xtab...)

Haliyam shu yerdamisizlar?

ERGAShGANLAR (Birinchi kishi). Savol chiqib qoldi.

Alisher. Nima ekan?

ERGAShGANLARDAN (Ikkinchi kishi). Ulug' insonsiz. Biz osiy bandalarni kechiring... Siz Shoirmi yoki Amirmisiz?

Alisher. Shoirluk qismatim. Amirlik ham... Aqlimni taniganimdan yolg'izlik va faqirlikni istadim. Umrmda juda erta bu dunyoning omonat, foniy ekanligini ongladim. Xushnud va og'ir damlarda bir so'z-ikki so'z aytib o'zumni ovutmoqqa urundim. Hali dunyo to'kis, inson naqadar komil emasligi meni qayg'uuga soldi. Yillar davomida dunyo ishlaridan uzlatga chekindim. Mana, hozir ham ziyoratgohda g'ariblikda turibmen. Ammo hayot g'avg'osi va savdosi menga biron payt osoyish bermadi. Bu kun ham o'zi-o'zimcha qolib, xatolar, gunohlarimiz uchun tavba-tazarru qilishga imkon yo'q. Ana, intilg'onim bilan, Kabaga yetib borolmayapman. Ro'y berayotgan ahvol, odamlarning biri-birini onglamasligi, biri-biri bilan kelishmasligi, johilligi, xudbinligi meni o'rtab yuborayapti. Men Yer yuzida irqi, millati, diniga qaramay, Tangri taologa itoatda bo'lg'on insonlar ahil, erkinlikda, hur yashashini orzu qildim! Ammo insonlar aksar isyonda bo'ldilar. Ular, shohdan gadogacha, osoyishtalik bo'lmag'on yerda xotirjamlik ham, bunyodkorlik ham, baxt-saodat ham bo'lmasligini o'ylamadilar. Dushmanlik emas, do'stlik qilishni istamadilar. Xudoga, biri-biriga bo'yinsunmadilar. Odamning odamga zulmi, zo'ravonligi bo'lg'on yerda qotil ham, maqtul ham quldur. Men sizlarga doim yordam berishni istaymen. Taassuflar bo'lsunkim, yordam berolmayapmen...

(Abdulxay tabib boshqalardan ajralib kelib, uni qo'ltig'idan tutadi.)

Abdulxay. Hazrat! Jon hazrat! Bir oz orom oling. Bemor o'zi hakimga yordam bermasa, hakim qiynalib qoladi... Bu tomon kun kech. Oftob botayapti...

(Sahroda quyosh bota boshlaydi.)

O'ninchi holat

Saroyda Sulton Husayn Boyqaro ayonlari bilan. U ham, ayonlar ham horg'in, parishon. Tashqaridan odamlar suroni eshitaladi.

Boyqaro. Ne shovqin? G'ulg'ulaga bois ne?

Amir Ali Bobo. Kelganlar podshoh arzu dodimizni eshitsu, deyishayapti.

Boyqaro. Biz ularning bezorilar, buzg'unchilar ustidan yozg'on arzu dodlaridin, irodasidin kelub chiqib, farmon berdik. Yana nima shikoyat bor ekan?

Xo'ja Shahobiddin. Ahvoldan ular hamon norozi bo'lishayapti.

Boyqaro. Nega norozi bo'lar ekan? Jinoyat sodir qilg'onlarga jazo barhaq. O'z ekkanini o'rsin!

Xo'ja Shahobiddin. Raiyat o'z baxtu saodati posboni bo'lg'on podshohiga ko'nglida borini aytishi sharan va rasman ravo, Sulton hazratlari.

Amir Valibek. Ular bir bedodlik o'rnida ikkinchi bedodlig', qordin qutulib yomg'irga tutulg'ondek bo'ldik, deyishayapti. Hirotida tinchlik o'rnashg'oni yo'q, deyishayapti.

BOYQARO (Mulozimlarga). Ayt, mashvarat qilib olg'uncha tinchib tursin!

(Mulozimlar chiqib ketishadi. Tashqarida to'lqindek bir ko'tarilib, bir tushgan suron tinadi.)

Majididdin. Ko'p chora-tadbir ko'rug'oniga qaramay, chindan notinchlik davom etayapti, onhazrat! Biz, sodiq qullaringizning Xudo oldida ham, Sizning oldingizda ham gunohimiz bo'ynimizda. Hamma balo shundaki, birovlar buzg'unchilik, o'g'rilik, qotillik qilayotg'onidan bo'lak gap bizga aniq emasdi.

Amir Valibek. Hozir ham aniq emas. Qorong'uda paypaslanib yurg'on kishidek ish tutmoqqa to'g'ri kelayapti.

Majididdin. Bundan tashqari, kim aybsiz, kim aybdor tekshirib-aniqlab ajratishni fuqaroga havola qilmag'on durustmidi? Beayb Parvardigor! Hech bir aybi yo'q banda bo'ladimu? Kimning kimgadir qasdi bo'lsa, o'ch olish, kimdir o'z odamini qutqarib,

begunoh birovni jarga surib tashlash kabi hodisalar ham ro'y berayapti. Johil mirshablaru ish topilsa qo'lini ishqay boshlaydig'on jallodlar-ku, do'ppini ol, desa boshni olaveradi. Haqiqatni surishtirib, adolatga rioya qilish qozi-quzzotlarning vazifasi. Ammo ular ham ko'zlarini pirpiratib, gangib yuribdi. Alqissa, ho'lu quruq baravar yonib yotibdi, podshohi olam.

Boyqaro. So'zlashdin murod - amal. Men uchun u muhim!

Majididdin. Qandoq bo'lmasun, kundalik hukumat ishlaridan ozod bo'lg'on, lekin davlat nomidan so'zlash, hukm yuritish, katta-kichik arboblarni ham taftish qilish haq-huquqiga ega dono bir kishi kerak. Bunga barcha ishtibohsiz qaraydurg'on kishi! U ahvolni tez, teran o'rganib-bilib aybdor bilan aybsiz orasin ajrim qilishi lozim! Adolatli ish tutilg'oniga odamlar ishonishi lozim! Shundoq qilmaguncha Hirot tinchimaydi, onhazrat.

BOYQARO (o'ylanib). Kim? Kim bu vazifaning uhdasidan chiqa oladi? Shu taxlit hakam yurtda bormu? Topiladimu?

(Ayonlar ancha sukutga cho'mishadi. Axiyri...)

Amir Valibek. Amir Alisher... Bo'lak kishini eslamadim.

Xo'ja Shahobiddin. Ul Zotdan boshqa kishi bu vazifani bajarolmaydi!

Sohibdoro. Yurtda biron odam yo'qki, Amir Alisherning to'g'ri, halol ish tutishiga shubhalanib qarasa!

Amir Ali Bobo. Ul Zot birovni jazoga buyursa ham, birovga shafqat qilsa ham, insof-diyonat ko'runadi. Hech kim norozi bo'lolmaydi!

Majididdin. Men Amir Alisherni hazratning salomatliklari yomon bo'lg'oni, dardlari borligi uchun aytmadim.

Boyqaro. Yaqin Kishimizga bu garon yukni ortsak, og'irlik qilmaydimu? Ne deysiz, Abdulxay tabib?

10 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Abdulxay. Amir Alisher bir yengil tortib, bir og'ir yotqon edilar. Alhamdulillah, ikki kundan buyon oyoqqa turdilar. Qolaversa, Alisher hazratlarining yurt, el-ulus tashvishidan bo'lak nima dardlari bor? Men ul janob nomlaridan istagancha so'z aytishim mumkin. Kafolat berg'onlar. Mabodo shahanshoh Amir Alisherga bu vazifani topshirsalar, u kishi buni har qachongi Sizning ishonchingiz va marhamatingiz, deb biladilar. ВѢБ Bosh ustiga ВѢК deb mamnun, minnatdor bo'lib qabul qiladilar. BOYQARO (xursand bo'lib). Tashakkur. Borakolloh.

O'n birinchi holat

Bir yerto'lada fonus yoqib Haydarbek ikki o'smir bilan chilim tortib o'tiribdi. Qo'lida bosh chanog'i uchinchi o'smir kiradi. Uchinchi O'smir. Haydarbek, qara. Men buni tarashlab, qadah yasamoqchiman. Marvarid qadab, o'z dinimiz bayrami kuni senga sovg'a qilmoqchimen.

Haydarbek. Sovg'ani har kuni aytib yurib emas, indamay vaqtida topshirish kerak! Kel, o'tir, chilimdan tort.

(O'smir chanoqni mixga ilib, o'tib o'tiradi.)

Birinchi O'smir. Malla! Shaharda nima gap?

Uchinchi O'smir. Suv quygandek!

Ikkinchi O'smir. Bo'lishi mumkin emas... Bu yerda tuqqan xotindek yotib, zanglab ketdik. Hatto kunduzi birrov chiqmayapmiz...

Haydarbek, bir aylanib kelmaymizmi?

Haydarbek. Har kecha bir kishining chiqqani yetadi! Hozir sharoit shunaqa! Sen, Malla, yalpayib o'tirmay, ahvolni gapir. Senlar tek o'tiringlar!

Uchinchi O'smir. To'g'risini aytsam, meni o'ldirishing mumkin. Qo'rqamen.

Haydarbek. O'ldirmaymen.

Uchinchi O'smir. Shahar rostdan ham jimjit! Odamlar, ikki yuzga yaqin kishi, Husayn Boyqaroga shikoyat bilan borg'onlar.

Shuning uchunmi, qo'lga oling'onlarni jazolash taqa-taq to'xtag'on. Bunisi yaxshi. Sharoit yumshaganidan, bizga yangi qo'shiladig'onlar chiqadig'onga o'xshaydur. Bunisi ham yaxshi...

Haydarbek. Cho'zma!

Uchinchi O'smir. Mirshablardan bir ayg'oqchimizning aytishicha, endi qozi-yu, qozixonalarni chetlab bir madrasa hujrasida Amir Alisher qo'lga oling'onlarni tergayotgan ekan...

HAYDARBYeK (jonlanib). I-e, Amir Alisher deysanmi? Yaxshi-ku! Men Navoiyni bilaman. Vaqtida otam Amir Jahongir barlosni qo'llag'on. Podshohga aytib, Turshiz qasabasiga hokimlikka qo'yg'on edi. Keyin, otamni qasaba aholisi o'ldirib ketg'on. Ammo Navoiyning himmati mening xotiramda qolg'on.

Uchinchi O'smir. Yomon joyi, Amir Alisher birovni urushmas, so'kmas, hatto baland tovushda gapirmas, faqat rost so'zlashni talab qilar ekan. Qo'lga oling'onlarni yolg'on yoki rost so'zlag'oniga qarab, ikki tomonga ajratayotg'on ekan...

Haydarbek. Buning yo'li oson. Yig'lab yuborib, yoqa yirtib yolg'onni rostdek ko'rsatsa bo'ladi. Bazilar qandoq ishontirishni bilmaydi.

Uchinchi O'smir. Oson emas ekan-da! Amir Alisher yuz-ko'zingga bir qaraganida, sen hali so'zlamay turib, butun hayoting unga ko'rinib qolar ekan. Avliyomi yoki yarim avliyomi, deyishadi.

Haydarbek. O'zim u kishining oldiga bostirib borsammikan?

Birinchi O'smir. Bizni o'yinga solib, o'zing esingni yeb qo'ydimgi, Haydarbek? Nimalar deyapsan?

Haydarbek. Esim joyida! U kishi avliyo bo'lsa, men payg'ambarman. Senlar ishondinglar-ku, hazratni ham ishontiraman.

Ikkinchi O'smir. Amir Alisher qayoqda-yu, biz qayoqda? Qaltis ishni o'ylama! Qaltis hazillashma ham!

Haydarbek. Hazil harom. Hazratning oldiga borib, bir oz yolg'on-yashiq gapirib aldayman. Keyin, ochiq savdoga o'taman. Siz dono odamsiz, tushuning, yangi din, yangi payg'ambar kerak, men shu payg'ambar bo'lib keldim, deymen. Bir payt otamni qo'llag'onsiz, meni ham qo'llab yuboring, deymen. Husayn Boyqaro do'stingiz, lekin mamlakatni boshqarolmayapti, farzandlari ham boshqarolmaydi, men boshqarishim kerak, deymen.

Birinchi O'smir. U kishi xuddi shuni kutib o'tiribdi!

Haydarbek. Menga birinchi iymon keltiring, odamlarning har xil dinga kimg'oni noto'g'ri, dunyoda ozgina odam qolib, hamma bir yoqqa qarab borishi kerak, deymen. Shuning uchun menga bu adashib-tentirab yurg'onlarning joni va moli halol qilib berilg'on... Siz erkinlik kuychisi. Ikkimiz birlashaylik, deymen.

Ikkinchi O'smir. Amir Alisher shunchalik go'lmidi, sening og'zingga qaraydurg'on?

Haydarbek. Qarataman. (Pastak deraza oldiga kelib, ko'chaga ko'z tashlaydi.) Kun yorishayapti. Senlar shu yerda kutib o'tiringlar, men bir oz ko'cha aylanib, ana, ko'rasizlar, bemalol gaplashib kelaman.

Uchinchi O'smir. Bormaysan! Sen borib bizni sotmoqchisan!

Haydarbek. Senlarning nimangni sotadi? O'zlaring sotilg'onlar! (Qo'ynidan pichoq chiqarib.) Yo'limni to'sma!

Birinchi O'smir. Sening gapiingga kimg'on biz ahmoq... Do'ppi tor kelayotganini bilib, endi o'z joningni qutqarishni o'ylayapsan. Nomard!

(Ular ham qo'yinlaridan pichoq chiqarishadi. Haydarbek maymundek sakrab, ulardan birini chaladi, birini tepadi, uchinchisining ko'ksiga pichoq sanchadi. Qattiq olishib, qolgan ikki o'smirni ham pichoqlaydi.

Keyin, shoshmay nimalarnidir bir tugunchaga yig'adi. Fonusni o'chiradi. U yon-bu yon qarab, boyagi bosh chanog'ini fonusning ustiga qo'ndirganicha, xonadan chiqib ketadi.)

O'n ikkinchi holat

Hirotdi madrasalaridan biridagi keng-mo'l hujra to'rida Amir Alisher qog'oz qoralab o'tiribdi. U yon tomondagi o'yiqlik ravoqlardan biriga o'ychan tikiladi va harir parda ortida shu asno yana Nozanin ko'rinadi.

ALISHYeR.

Nazarga qaysi tarafdinki, bir g'ubor kelur,

Ko'zum yorur - bu tamanno bilaki, yor kelur.

Chu ko'chadin qulog'im "dubdurni eshitsa, ko'ngul

Dukullar, o'ylaki, ul nozanin-suvor kelur.
Boqar yana sari-ko'rmasqa solibon ul sho'x,
Qoshida - qaysaridinkim, bu beqaror kelur.
Qochinglar, ahli salomatki, kofiri masti -
Chiqorg'ali xirad-u, sabrdin dimor, kelur.
Ko'rub, bo'lurlar oshufta ro'zg'or ahli,
Qayu tarafki, bu oshufta-ro'zg'or kelur.
Bukim, biri-biri keyincha bordilar ahbob,
Azolarig'a sirishkim tuzub, qator kelur.
Navoiy-yo, qalaming javri-bahr yo'limidur,
Ki, turmayin ichidin durri shohvor kelur...

Nozanin. Yor kelur...

Ul nozanin-suvor kelur...

(parda ortidan chiqib)

Men keldim! Badkorlar daf bo'lib, begunohlar o'z tirikchiligini davom ettirg'oni uchun Sizga tasanno. Toliqibsiz! Lekin azob bilan, mashaqqat bilan haqiqat va adolatni qaror topdirdingiz.

Alisher. Bu - eng avval, Sulton Husayn Boyqaro hazratlarining himmati, zakovati.

Nozanin. Balki, shundoqdir? Men bilmaymen.. Siz oldin ham necha bora "qozilik qilg'onsiz. Birovlarning mushkulini oson qilish, yoshlarning boshini qovushtirish! Odamlar rivoyatlar to'qub yuradilar. Ammo bu galgi hakamlik... Uch kun ichida har kuni necha o'nlab kishini tergash o'zi bo'lmaydi!

Alisher. Men unday deb o'ylamayman. Saltanatga, yurtga, elga xizmat qilish bizning vazifamiz. Men uchun dunyoda yurt tinchligi, elning osoyishta, baxtli hayot kechirishidan muhim va aziz narsa yo'q!

Nozanin. Siz qo'lga oling'on, jazo berilishini kutayotg'on mahbuslarni bir-birdan, navbat bilan hujraga chorlab terganingizni eshitdim. Gunohi bo'lmay tuhmatga qolg'onlarni qutqarganingiz, gumrohlik qilib adashg'onlardan bir qismini mardikorlikka yuborib, bir qismini tarbiya uchun qarindosh-urug'lari qo'lga topshirganingizni ham bilamen. Gunoh qilmoqqa ulgurmag'onlardan yana bir qismni turli ustalardan hunar o'rganishga jo'natg'oningizni ham odamlar gapirib yuribdi. Gunoh qilg'on va ashaddiy buzg'unchilarni jazoni belgilash uchun mirshablar orqali qozikalonning o'zlariga yuborganingizni ham aytishdi. Bu gaplardan nafaqat men, Hirotda hamma xabardor...Tag'in ne ish qolg'on ekan?

Alisher. Ana-mana, ko'rursen...

(Hujraga ikki mirshab kiradi. Nozanin parda ortiga chekinadi.)

Birinchi Mirshab. Ulug' Amir! Qo'lga oling'on, tergash lozim bo'lg'onlardan hech kim qolmadi. Faqat, hovlida uch-to'rt kishi qabulingizni istab o'tiribdi.

Alisher. Kimlar ekan?

Ikkinchi Mirshab. Ularning bizga daxli yo'q! Bir masjid ahli bilan, mullavachchaga o'xshagan muloyim, odobli bir yigit.

Birinchi Mirshab. Biz mahkamaga qaytib ketaveraylikmu? Bizga ruxsatmu? Agar muhim bir xizmat bo'lmasa...

Alisher. Shoshmanglar! Xizmat bor... Mulozim qayerda?

Ikkinchi Mirshab. U ham hovlida...

Alisher. Mulozim eshik oldida tursun. Masjid ahli kirsun. Sizlar yigit bilan gaplashib o'tiringlar. Ketib qolmasun. Aytganimda kiritasenlar.

(Mirshablar chiqib ketishadi. Eshik oldida mulozim paydo bo'ladi. Ichkariga katta ko'chada joylashgan masjid muazzini va uch some kirib kelishadi.)

Muazzin Va Somelar. Assalomu alayko'm va rahmatullohu va barakatuhu.

Alisher. Va alayko'm assalom. Marhabo!

(Kelganlar o'tib o'tirishadi.)

Muazzin. Janob Amir! Biz bilan so'zlashmaysiz, deb qo'rqqan edik.

Alisher. Nega?

Birinchi Some. Sizning dindorlar, mullalar, hatto shayxlar to'g'risida bazan qattiq yozg'oningiz malum. Zohidlarni xush ko'rmaysiz...

Alisher. Men Tangri taolo yaratg'on barcha tirik jonni xush ko'ramen. Ammo din va jaholat, marifat va xurofot bir emas. Bazi mullalar masjidida o'zini shundoq kibr-havo bilan tutadiki, go'yo uning o'zi ayni shu soatda to'g'ri Xudoning oldidan yerga tushg'ondek. Bu bazo, dunyoda yashag'ondan ko'ra hoziroq o'lib qo'yaqolg'on maquldek ko'yda vaz aytadi. Biz tiriklarga, rahravg'a, fano - baqo ekanligini, foni dnyo boqiy dnyoning yo'lagi ekanligini yoki tushunmaydi, yoki tushunmaganga oladi. Ikkinchi Some. Xokisor, aqlli mullalar ham ko'p.

Alisher. Ko'p! Shundoq bo'lisa-da, birgina zohidning o'zini jannat eshigida turg'ondek, barchani kofir deb do'zaxga haydayotg'ondek tutg'oni oxirati obodonligini o'ylab, foni dnyoga ko'rk berayotg'on kishilarning ko'ngliga ozor yetkizadi. Bu mayli, suyagi qotmag'on norasidalar-yoshlarni dindan ham, dunyodan ham bezdiradi. Egri yo'llarga surib yuboradi. Ularning fikrini buzadi... Endi sizlar ozgina sabr qilinglar. (U hujraning ikkinchi tomonidagi harir parda tortilgan o'yi qovoqni ko'rsatadi.) Mana, bu yoqda ovoz chiqarmay turinglar. (Ular parda ortiga o'tishadi. Alisher mulozimga murojaat qiladi.) Hovlidagi yigit kirsun..

(Hujraga Haydarbek kiradi.)

Haydarbek. Assalomu alayko'm va rahmatullohu va barakatuhu.

Alisher. Salomga alik olmaslik gunoh. Va alayko'm. Kel!

Haydarbek. Siz meni tanimaysiz. Shuning uchun hali tanishmay turib har narsani gumon qilayapsiz! Amir Jahongir barlosni eslaysizmu, men o'sha odamning o'g'liman.

Alisher. Bilamen. Sen Haydarbeksan!

Haydarbek. (asabiylanib). Yigitlardan birovi majbur bo'lib sizga mening ismimni aytib qo'ydimu? Meni sotdimu?

Alisher. Yo'q. Birontasi og'iz ham ochg'oni yo'q. Lekin xalq nodon emas. Sening isming allaqachon ayon bo'lg'on edi... Sening

qilg'on vahshiyliklaring ko'rinar, o'zing panada eding. Shundoq pardalang'on edingki, odamlar yaqin bormoqqa qo'rqqanlar.

Haydarbek. U sizga qayerdan oshkor bo'ldi?

Alisher. Aytamen. Gunohkorlardan rost so'zlashni talab qilg'onimda, yolg'on emas, rost so'zlag'onlardan ham hech biri maqsadga yaqin bormadi. Shunda, men ulardan, yolg'iz yigitga o'xshaysan, hech kiming yo'qmi, deb so'rag'ondek bo'ldim. Ular kimi bo'lsa, aytdi. Do'st-birodaring-chi, deb so'radim. Bir-ikkisi o'z tengi-to'shini sanayotg'onida, aftidan beixtiyor, sening isming og'zidan chiqib, rangi oqarib ketdi. Men bu, sen ekanligingni payqadam.

Haydarbek. Siz meni oldin ko'rmag'onsiz. Hozir bu men ekanimni qayoqdan bildingiz?

Alisher. Sen masjid ahliga qo'shulib, o'zingni muloyim, odobli mullavachchadek tutg'oning-u, eshikdan kirasolib mullalardek salom berg'oningdan bildim.

Haydarbek. Men o'zim mullavachchamen.

Alisher. Bilamen. Sen madrasada o'qug'onsen. Katta ko'chadagi masjidga ham borib turg'onsen. Seni tanib qolg'oni uchun, imomni urub, majruh holga solg'onsen.

Haydarbek. Nega kelganimni ham bilasizmu?

Alisher. Bilamen. Sen meni aldab-avrayman, deb kelding.

Haydarbek. Meni kutmaganmidingiz?

Alisher. Nega? Kutayotg'on edim. Jinoyatchi baribir, o'zi jinoyat qilg'on yerlar atrofida aylanadi.

Haydarbek. (o'ylanib). Hazrat Amir! Siz yer ostida ilon qimirlasa, bilar ekansiz. Sizdan gap yoshurib bo'lmas ekan. Mayli, dardimni sizga dasturxon qilamen... Siz vaqtida otamga mehribonlik ko'rsatgansiz. Uni o'ldirishdi. Olomon urib-tepib, yulib-yulqib sazoyi qilib o'ldirdi. Endi otam Amir Jahongir barlos yo'q. Lekin olomonning johilligi, yovuzligi-yu, sizning dadamni qo'llag'oningiz, bag'rikeng, shafqatli inson ekanligingiz mening xotiramda qolg'on. Shuning uchun o'z oyog'im bilan oldingizga keldim.

Alisher. Amir Jahongirning ham, - yovuzligi, vahshiyliги bu darajaga bormag'on bo'lsa-da, - buzuq ishi ko'p edi. Uning uchun odamlarni qiynash, toptash pashsha qo'rishday gap edi. Bir kuni oldimga kelib yig'ladi, tuzalaman, dedi. Men unga achinib, tarbiya topishini umid qilib, keyin umrim davomida bir marta Sulton Husayndan tanbeh olg'onmen.

Haydarbek. Otam sizning yuzingizni yerga qaratg'on, albatta. Xudo kechirsin, u nodon, johil kishi edi. Gunoh qilishdan qo'rqmasdi.

Alisher. Astag'furulloh! Odamlarga shuncha zulm o'tkazib, bedodlik qilib, sen dono, aqlli, yana gunoh qilishdan qo'rqar ekansenmu?

Haydarbek. Hamma narsa maqsadga bog'liq. Men "Oriylar degan jamoa tuzg'on edim. Siz ulug' insonsiz, tushunasiz. Dunyoning yarmi past tabaqa, gunohga botg'on, yerda qurt-qumursqadek sudralg'on kishilar. Qadimdan hozirgacha butun tarix davomida sizdek mutafakkir insonlar odam o'zgarsin, tuzalsin, oliy bir daraja kasb etsin, deb harakat qilib kelg'onlar. Shundoq emasmi? Lekin odamlar kam o'zgardi! Men shu harakatni tezlashtirishga urundim. Men yangi din yaratg'on prayg'ambarmen. Dunyoda odamlar yagona etiqod tutg'on, yagona oliy irq bo'lishi, Xudoni tanig'on Odam darajasiga yetishini orzu qildim.

Alisher. Telba! Odamga jon ato etish ham, uning jonini olish ham sen emas, Yolg'iz Tangri taoloning ishi! Birovni begunoh, birovni osiyga ajratish, birovga yuksak masnad berib, birovni pastga tushirish ham Xudodan! Sen oyoq ostidagi bir chumolining yo'lini o'zgartishga qodir emassen! Olimmi, shoirmi, ulamomi - mutafakkirning vazifasi ziddiyatli dunyoda faqat mutanosiblik, mezon saqlanib turishiga xizmat qilishdan iborat. Dunyoni tuzataman, deb odamlarni qirish, qatag'on qilish - jallodlikdir. Parda tortg'on bilan yopilmaydurg'on jinoyatdir... O'g'urlik qilib yurg'oning-chi?

Haydarbek. O'g'rilik yomon. Lekin jamoaga mablag' kerak edi. To'g'ri, boshqa yerlardan ham tarafdorlarim menga yordam berg'onlar, o'zim baribir ko'proq kuch yig'ishga majbur edim.

Alisher. Tarafdorlar? Yurti ichdan buzmoq istag'on, turkiy el-ulus ahil bo'lishi, bir yoqadan bosh chiqarishiga doim raxna solg'on dushmanlar! Sening barcha aytg'oning ham ularning so'zi...

Haydarbek. Mening o'z etiqodim shu! Buni sizdek ulug' kishi ham jon-vujudimdan chiqartirolmaz! Yoshlikdan shu yo'lni tutg'onmen. Men nasihat eshitmoqqa kelg'onim ham yo'q... Tushunib turibmen, siz menga fikrdosh bo'lolmaysiz! Faqat, bilmoqchimen. Ana, yoningizdamen, siz meni o'limga hukm qilasizmu?

Alisher. Biror yoqqa nega qochmading? Seni hech kim tanimas edi. Tutmas ham edi.

Haydarbek. Qochardim. Ayrim nomardlar...

Alisher. Ularga endi sen kerak emassen... Sening mulking - odamlarga nafrat, mening mulkim - muhabbat. Sen o'g'ri, kallakesarsen. Buning ustiga, muqaddas dinimizga malomat keltirib kufr va isyon yo'lga kirgansen! Buzg'unchisen! Yovuz jamoa tuzg'onsen! Lekin birovga jazo berish mening vazifam emas! Men nafaqat inson, biron tirik jonga ozor yetishini istamasmen. Eng yomon, eng tuban bir maxluqotning o'limi ham mening ko'zlarimga yosh keltiradi...

Haydarbek. Rahmat, hazrat Amir... Men endi yomon ishlarimni tashlayman. Tinch yuraman! Tushundim. Faqat, siz menga yordam bering.

Alisher. Bir kunlar otang ham shunday degan edi...

Haydarbek. Otam uchun ham... Meni qutqaring. O'ldirishmasin! Ayting, bir payt otamga achinganizdek, hozir menga ham rostdan achinasizmu?

(Shu payt toqati tugab, bir yon parda ortidan Nozanin, ikkinchi yon parda ortidan muazzin va somelar otilib chiqishadi)

Nozanin. Amir Alisher achinganda ham, men achinmasmen. Sen bir bola tug'ilishi qanchalik azob ekanligini bilasanmu? Keksalar ko'zida g'iltillagan yosh nima ekanligini tushunasanmu?

Somelar. Amir Alisher achinganda ham, biz achinmaymiz.

Muazzin. Bizning masjidimiz bozor yaqini, gavjum joyda. Ammo sening kasringga odam kelmaz qo'yg'on edi. Yaratg'onga shukronalar bo'lsinkim, bu kun bomdod namozidan masjid to'ldi.

(Bexosdan Sulton Husayn Boyqaro, Majididdin Muhammad, saroyga doxil kishilar, Sulton Badiuzzamon va Shijuddin Zunnun hujraga kirib kelishadi. Eshik oldida turgan mulozim bilan ikki mirshab ham ichkari kirishadi.)

Boyqaro. Amir Alisher achinganda ham, men achinmasmen. Saltanatda shafqat bo'lmaydi. Sen buzg'unchilik qilib, shuncha odam o'ldurub, shuncha xonadon yostig'ini qurutdingki, bu gunohlarning yuzdan biri bo'lg'onda ham, seni dor kutar edi! Jallod...

(Haydarbek tuyqusdan qo'ynidan pichoq chiqaradi.)

Haydarbek. Bittang yaqinlashma! Gadomi, shohmi qarab o'tirmayman, chavoqlab tashlayman... O'rtadan yo'l ochasanlar, chiqib

This is not registered version of TotalDocConverter

ketanmas ekanligini boyqaroga, jano' bularni, mening on-bitg'on qotil, deyapsiz. To'g'ri! Siz-chi! Mana, bu o'g'lingiz-u, dunyo talashg'on boshqa farzandlaringiz? Biri-biring bilan dushmanlik qilib, urushib, odam o'ldurg'on, o'ldurturg'on emasmanlar? Senlarga ruxsat berilg'on, menga ruxsat yo'qmu? Xudo oldida men osiy bo'lsam, senlar ham osiy... Yana besh-o'n kishi qirilmasin, desanglar, yo'lni bo'shat!

Alisher. Haydarbek! Bu dunyo-u dunyo har kimning qilg'on gunohi uchun javob bor. Jazodan qochib bo'lmaydi. Seni kechirish qiyin. Men senga achinaman, sen ham odam bolasisen. Yordam berishni ham istayman. Lekin yordam berolmayman... (U Haydarbekka jurat bilan, shuning barobarida osoyishta yaqinlashib, qo'lidagi pichoqni oladi, mulozimga topshiradi. Mirshablar yugurib kelib, Haydarbekning qo'llarini bog'laydilar, uni olib chiqib ketadilar.)

ABDULXAY (Alisherning yoniga kelib). Bir dori yasayapman. Barcha dardga davo bo'ladurg'on. Ertaga kelturaman.

Alisher. Barcha dardga davo, deysizmu?

Boyqaro. Abdulxay tabib aytdimu, ishonmoq kerak.

(Hammalari, ular orasida Nozanin ham chiqib ketishadi. Yolg'iz Alisher qoladi.)

ALISHYeR.

Har nafas dunyo ishi, charxning jafosi o'zgardir,
Osmon yulduzlarin dog'i balosi o'zgardir.
Kecha-kunduz jomasi yo timqaro yo ko'k magar,
Tun azobi boshqa-yu, kunduz azobi o'zgardir.
Bil, bu bog'ning gullari motamzada, sadporadir,
O'rtanurda har birin kiygan qabosi o'zgardir.
Ahli dil garchi muqaddas bog' sori mayl etsalar,
Bunda mano bor. Uning obu-havosi o'zgardir...

(U hujrada o'ychan nari-beri yurayotib, to'xtaydi. Ayni soniyada hujra to'ridagi ravoqda maydon ko'rinadi. Alisher boshini ko'tarib qarab, tiklangan dorda chayqalgan Haydarbekning jasadini ko'radi.)

Haqiqat va adolatning bahosi bunchalar qimmat!

(Ravoqdan uzoqlashib, titrab ketadi. G'amgin qunishib, yuzi, ko'zlariga kaftlarini bosadi. Nozanin qaytib kiradi.)

Nozanin. Shu bilan, bor bedodlik bitdimu?

Alisher. Ilohim, bitgan bo'lsun... (ko'kka iltijo qilib) Yo Parvardigor! Mening qavmimga va barchaga dunyoda tinch-osoyishta, baxt-saodatli yashashni buyurgin...

PARDA